

Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

**2022- yil
Yanvar-dekabr**



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar
ulushi –
63,5 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
4 966,6
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
14 722,6
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
66,0 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
116,6 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
114,1 %**

2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **14 722,6** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **3 103,1** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,6 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	14 722,6	116,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	736,6	127,5
Moliyaviy xizmatlar	2 472,5	126,6
Transport xizmatlari	2 504,5	107,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 307,3	107,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	372,6	122,4
Savdo xizmatlari	4 892,8	117,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	409,2	109,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	774,5	126,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	329,9	113,9
Ijara xizmatlari	292,8	121,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	419,5	108,1
Shaxsiy xizmatlar	945,3	105,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	158,2	106,0
Boshqa xizmatlar	414,2	115,1


Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **126,7 %**. Nisbatan past me'morchilik sohasidagi xizmatlarida kuzatilgan – **106,0 %**.







2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi **2 504,5** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **107,5 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **17,0 %** ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2022- yil yanvar – dekabr oylarida)



-  Avtomobil transporti
-  Omborxon va yordamchi transport xizmatlari
-  Pochta va kuryerlik xizmatlar


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **92,1 %** dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-dekabr oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **91,9 %** ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **33,2 %** ni tashkil etib, bu **4 892,8** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **3 710,5** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **31,9 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2022-y.
yanvar-
dekabr

4 892,8
mlrd. so'm



3 710,5
mlrd. so'm



Hajmning
o'sishi

117,4 %



110,0 %

2021-y.
yanvar-
dekabr



2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **75,4 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **18,8 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **5,8 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida)




Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo ulushi **80,6 %** ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)

2022- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **2 472,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **1 909,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **16,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **16,4** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **562,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **126,6** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning o'sish sur'ati **126,1** % ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,6 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar- dekabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,4 %** oraliq'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **3,0%** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)

Yordamchi moliyaviy
faoliyat



Sug'urta bo'yicha
xizmatlar




Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,3 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,7 %** ni tashkil etgan .

2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y.
yanvar-dekabr

574,4
mlrd. so'm

110,2%

4,9 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

162,2 mlrd. so'mga

2022- y.
yanvar-dekabr

736,6
mlrd. so'm

127,5 %


5,0 %

2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,1 %** ni tashkil etgan.


2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **774,5 mlrd. so'm**ga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,3 %** ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **126,7 %** ni tashkil etdi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.
Yanvar-dekabr




329,9 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

2,2 %




Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi

113,9%




O'sish sur'ati


2021- y.
Yanvar-dekabr



257,7 mlrd. so'm



2,2 %



147,3 %

2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

254,4 mlrd.
so'm

372,6 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2021- y.
yanvar-dekabr

2022- y.
yanvar-dekabr

115,3 %

122,4 %

O'sish
sur'ati

Namangan viloyati statistika boshqarmasi




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar


2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **118,2** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2021- y.
Yanvar-
dekabr

2022- y.
Yanvar-
dekabr



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2022- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **82,2** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-dekabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **82,1** % ni tashkil etgan.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Namangan viloyati	14 722,6	116,6	119,7
Namangan sh.	5 821,3	124,4	123,1
tumanlar:			
Mingbuloq	592,6	112,3	120,3
Kosonsoy	804,9	114,2	118,3
Namangan t.	776,6	113,2	115,0
Norin	648,3	110,3	121,6
Pop	932,0	111,2	113,0
To'raqo'rg'on	960,2	114,7	115,3
Uychi	873,2	111,1	122,4
Uchqo'rg'on	722,7	111,3	111,8
Chortoq	796,3	110,4	120,9
Chust	1 057,4	111,2	120,3
Yangiqo'rg'on	737,1	112,3	119,3

Namangan viloyati statistika boshqarmasi




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)



2022- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **39,6 %** (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – **37,1 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **4,0 %** (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – **4,1 %**) qayd etildi.

2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

4 966,6
ming so'm

Hajmning
o'sishi

958,8 ming
so'mga

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 966,6** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021 - yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **4 007,8** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,3 %** da qayd etilgan.

O'sish sur'ati

114,1%

2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

23435
birlik



2298
birlikka
o'sgan

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

110,9 %



9,8 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,0 %** ni tashkil etdi

2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **80,8 %** ga to'g'ri keldi.

1- yanvar holatiga

2022- y.

86,5 %

2023- y.

87,5%

Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00